

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

PAKIRDINOVA SHAROFAT ABDUMUTALJONOVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING BLENDED LEARNING
TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI
METODIK TAKOMILLASHTIRISH
(ingliz tilini o‘qitish misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarning blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasi metodik takomillashtirish3

Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

Methodological improvement of pre-service teachers’ professional competence through the implementation of blended learning technologies.....25

Пакирдинова Шарофат Абдумуталжоновна

Методическое совершенствование профессиональной компетентности будущих учителей на основе технологий смешанного обучения.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....52

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

PAKIRDINOVA SHAROFAT ABDUMUTALJONOVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING BLENDED LEARNING
TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI
METODIK TAKOMILLASHTIRISH**
(ingliz tilini o‘qitish misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3547 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-saytida (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedova Laylo Tolibjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xasanova Gulsanam Xusanovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «10» 12 soat 13.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (993873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «29» 11 kuni tarqatildi.

(2025-yil «29» 11 dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).


B.O. Qurbonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor


M.V. Namajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor


D.A. Ganiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash goshidagi Ilmiy Seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakalarini shakllantirish, blended learning texnologiyalariga asoslangan integratsiyalashgan ta'limni rivojlantirish va ingliz tilini o'qitishda an'anaviy hamda raqamli metodlarni uyg'unlashtirish orqali pedagogik samaradorlikni oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ingliz tili o'qituvchilarini blended learning asosida tayyorlash tizimi bugungi kunda butun dunyo miqyosida jadal rivojlanayotgan va zamonaviy ta'limda strategik ahamiyat kasb etadigan yo'nalishlardan biridir. Shunday bo'lishiga qaramay, nafaqat respublikamizda, balki butun dunyo bo'ylab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini blended learning texnologiyasi asosida rivojlantirish, mavjud an'anaviy va raqamli ta'lim imkoniyatlaridan xabardor bo'lib o'quv jarayonini yanada samarali gibridd texnologiyalar bilan tashkil etish muhim vazifa sifatida qolmoqda. Blended learning texnologiyasi bu jarayonda ana'anaviy ta'lim (face to face) va onlayn o'qitishning o'ziga xos ustunliklarini birlashtirish hamda ulardan optimal foydalanishga imkon beradi. Blended learning texnologiyasi xalqaro miqyosda ta'limni *shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan, interfaol va natijador shaklda* tashkil etish vositasi sifatida keng qo'llanilayotgali bilan asoslanadi.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash sohasida blended learning texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha keng qamrovli tajribalar to'plangan. Ingliz tili o'qituvchilarining blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish sohasida AQShning Arizona, Pensilvaniya, Oregun universitetlarida; Kanadaning Toronto, British Kolumbiya universitetlarida; Buyuk Britaniyaning Oksford, London, Votervikk universitetlarida; Avstraliya va Yangi Zelandiyaning nufuzli ta'lim markazlarida ta'lim boshqaruv tizimi (LMS), virtual sinf muhitlari, interaktiv multimedia platformalar, mobil ta'lim ilovalari va sun'iy intellekt bilan boyitilgan moslashuvchan ta'lim tizimlari, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy-amaliy dasturlarni yaratish va joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqot loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda ham xorijiy tillar o'qituvchilarini tayyorlash metodologiyasida talabalarning an'anaviy va raqamli ta'lim usullarini qo'shib qo'llash malakalarini rivojlantirishga asoslangan holda blended learning kontentlarini ishlab chiqish, o'qituvchi tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish va samarali amalga oshirish, innovatsion va mantiqiy fikrlashni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy tadqiqot natijalari blended learning texnologiyasi vositasida moslashuvchan ta'lim tizimlarining ishlab chiqilishi va bu tizimlar orqali bo'lajak o'qituvchilar ingliz tili metodikasi, zamonaviy pedagogika, ta'lim psixologiyasi va raqamli texnologiyalar integratsiyasini chuqur o'rganishlarini hisobga olgan holda blended learning metodologiyalarini yaratish o'qituvchilar tayyorlash tizimining sifat ko'rsatkichlarining sezilarli

yaxshilanishiga, jarayonning moslashuvchanligi va samaradorligining oshishiga, talaba va o'qituvchilarda o'quv motivatsiyasi, kasbiy kompetensiya hamda texnologik savodxonlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi, pedagogik kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablariga moslashtirilishi, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat rahbari tomonidan chet tillarni o'qitish sifatini oshirish, innovatsion metodikalarni joriy etish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha belgilangan vazifalar oliy ta'lim tizimining barcha bosqichlariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davrida ta'lim va fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Respublikada chet tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-sonli Qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini ta'minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi¹.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir vositalar, konsepsiyalar, tamoyillar hamda metodikalarni takomillashtirishga oid masalalar J.Jalolov, S.Nishonova, A.Raxmonov, N.Xodjayeva, N.Obidova, T.Sattorov, G.Mahkamova, Sh.Alimov, A.Ziyayev L.Axmedova, B.Qulmatov, M.Gulyamova, G.Obidova, N.Abbasova, I.Iminahunovalar tadqiqotlarida o'rganilgan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini blended learning (aralash ta'lim) texnologiyasi asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari Z.Abdullayeva, L.Babaxodjaeva,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi 6108-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-sonli Qarori.

X.Mannanova, A.Pardayev, A.Asqarov, N.Muslimov hamda M.Xolmuxamedovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.Andreyeva, A.Vorobeva, O.Kryukova, V.Tonkonog, P.Ananchenkovalar an'anaviy va onlayn ta'limning o'xshash hamda farqli jihatlarini taqqoslab o'rgangan bo'lsa, S.Titova, Y.Zadarojnaya, N.Kameneva chet tillarni onlayn o'qitishning didaktik va metodik asoslarini ilmiy tadqiq etgan. OTM xorijiy til va adabiyoti yo'nalishlarda chet tillarini an'anaviy va onlayn o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, ijobiy va salbiy jihatlarini esa N.Samarina, A.Gazizova, I.Rasxodova, I.Karimullin, Y.Vinogradova, L.Klobukovalarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan.

Xorijiy davlatlarda blended learning ta'limini tashkil etishning nazariy asoslari hamda umumiy xususiyatlari D.Garrison, J.Bonk, N.Vaughan, C.Procter, A.Piersy, A.Miller A.Deyv, J.Xeppen, A.AIXasanlar tomonidan taqqoslangan holda tadqiq etilgan bo'lsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyani oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari, o'qitish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiklar va ularni bartaraf etish masalalari S.Edvard, K.Vintr, K.Nelsn, A.Joyke, M.Broun, M.Sayzmor, M.Kamorro, A.Bayrel, M.Alhamamilar tomonidan yoritib berilgan.

Olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasi bo'yicha qator ilmiy-pedagogik yo'nalishlarda muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, innovatsion metodlardan foydalanish masalalari mahalliy olimlar tomonidan turlicha yondashuvlarda o'rganilgan. Biroq, zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim sifatiga qo'yilayotgan xalqaro talablar asosida blended learning texnologiyasi doirasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish, an'anaviy va onlayn ta'lim shakllarining integratsiyalashgan holda o'rgatilishi, ularning samaradorligini baholash hamda bu jarayonga mos metodik ta'limiy tizimni ishlab chiqish masalasi hali yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan. Xususan, ingliz tilini an'anaviy va onlayn shaklda o'qitishda metodologik yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, ularni aralash formatda uyg'unlashtirib, talabalarning kasbiy, reflektiv va texnologik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini chuqur ilmiy asoslash dolzarb muammoligicha qolmoqda. Bu esa mavjud pedagogik tajribalarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, samarali ta'limiy modellarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga ehtiyoj ortib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu tadqiqot ishlari blended learning texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ilgari yetarli darajada yoritilmagan metodologik muammolarning ilmiy tahlilini berishga va ularning yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tatqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tatqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tatqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy tatqiqot ishlari rejasining "Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari va tendensiyalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini blended learning texnologiyasi asosida rivojlantirish va metodik jihatdan takomillashtirishga oid nazariy va amaliy asoslarni ishlab chiqish, ularni pedagogik jarayonga samarali joriy etish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

blended learning texnologiyasi hamda kasbiy kompetensiya tushunchalarni ilmiy-metodik jihatdan o'rganish;

ingliz tilini o'qitish misolida bo'lajak o'qituvchilar uchun blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga doir mavjud tajriba va metodikalarni tahlil qilish;

blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik texnologiyani ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

ishlab chiqilgan metodik texnologiyaning samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar berish.

Tadqiqot obyekti sifatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda blended learning texnologiyasi samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat chet tillari institutui, Namangan davlat universiteti hamda Farg'ona davlat universitetlari 3-4-bosqich talabalari jami 586nafar respondentlar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalarining blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, anketa so'rovlari, test, suhbat, nazariy tahlil, matematik-statistik, diagnostik testlar, pedagogik tajriba sinov ishlari kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalarining o'quv bilish faoliyati blended learning texnologiyasi asosida modifikatsiya qilinib o'quv modullarining malaka talablariga asoslangan kompetensiyaviy yondoshuvlarning transformatsiyasi asosida takomillashtirilgan;

blended learning texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ, texnologik, reflektiv va innovatsion kompetensiyalari o'quv modullarini interfaol ta'lim metodlari bilan kardinatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

blended learning texnologiyasi asosida xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalarining til bilish ko'nikmalari CEFR talablari darajasiga muvofiqligi faktorli tahlil qilinib, kasbiy layoqatlari, amaliy kasbiy bilimlarini aniqlashtirishda zamonaviy bilimlar intensivligi hisobga olish, kombinatsiyalash hamda interfaol metodlarni mutaxassilik fanlari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalarida blended learning texnologiyasi asosida o'qitishning faktorli tahlili, ingliz tilini o'qitishning integratsion jarayonlarini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga

doir belgilangan ko'rsatkichlaridan foydalanish konsepsiyasiga asoslangan takliflari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

blended learning texnologiyasi haqidagi tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy mahoratlarini oshirishda blended learning yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni qo'llashda mavjud imkoniyatlari o'rganildi;

oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini blended learning asosida o'qitishdagi samarali texnologiyalar tatbiq etildi;

xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalarining blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan "Methodology of teaching English to adult learners" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:

Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalari bilan muvofiqligi, ilg'or xorijiy tajribalar tahlili, metodik ta'minotning amaliyotga joriy etilganligi, dasturiy vositalar orqali innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish mexanizmi yaratilganligi, tajriba-sinov ishlarining samaradorlik ko'rsatkichlari matematik-statistik usullar asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga tatbiq etilganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ingliz tilini o'qitishda blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar asoslab berilgan. Jumladan, tadqiqotda ilgari surilgan konseptual yondashuvlar, innovatsion metodlar va interfaol ta'lim texnologiyalari orqali talabalar nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy bilim va kompetensiyalarni integratsiyalashga qaratilgan metodik tizim ishlab chiqilgan. Dissertatsiyada dars mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlar yaratish orqali talabalarining ijodiy va mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, raqamli pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonining sifatini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati taklif etilgan samarali metodlar va texnologiyalar asosida blended learning texnologiyasiga mos muammoli mashqlar, interfaol topshiriqlar tizimi, dars ishlanmalari va mashqlar to'plamlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Ushbu metodik vositalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda, ularning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va lingvometodik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslarida, shuningdek, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasiga doir tahliliy natijalari asosida:

xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi talabalarining o‘quv bilish faoliyati blended learning texnologiyasi asosida modifikatsiya qilinib o‘quv modullarining malaka talablariga asoslangan kompetensiyaviy yondoshuvlarning transformatsiyasini takomillashtirishga doir takliflari “Methodology of teaching English to adult learners” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son nashr ruxsatnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirib, kommunikativ kompetensiya, metodik yondashuvni qo‘llash, raqamli vositalardan foydalanish va mustaqil ta‘limni tashkil etish kabi amaliy malakalarini shakllantirish jarayoni osonlashgan;

blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ, texnologik, reflektiv va innovatsion kompetensiyalari o‘quv modullarini interfaol ta‘lim metodlari bilan kardinatsiyalashga doir takliflari “Methodology of teaching English to adult learners” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son nashr ruxsatnomasi) Natijada talabalarining metodik bilimlari, reflektiv fikrlash qobiliyatlari va mustaqil ishlash ko‘nikmalari samarali takomillashtirildi;

blended learning texnologiyasi asosida xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi talabalarining til bilish ko‘nikmalari CEFR talablari darajasiga muvofiqligi faktorli tahlil qilinib, kasbiy layoqatlari, amaliy kasbiy bilimlarini aniqlashtirishda zamonaviy bilimlar intensivligi hisobga olish, kombinatsiyalash hamda interfaol metodlarni mutaxassilik fanlari bilan integratsiyalashga doir takliflari “Methodology of teaching English to adult learners” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son nashr ruxsatnomasi) Natijada talabalarining til bilish ko‘nikmalari faktorli tahlil qilinib, kasbiy bilimlarini aniqlashtirish ko‘nikmalari asoslandi;

zamonaviy ta‘limda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, aniq metodik yondashuv, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar tahlili, ularga ilmiy jihatdan asoslangan yechim va takliflar, ta‘lim sifatini oshirish hamda o‘qitishning individuallashtirilgan, faol va samarali modelini yaratish imkoniyatlarini asoslab berishga qaratilgan, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz” radioeshittirishining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston teleradiyokompaniyasining, 2025-yil, 25-iyundagi, 05-09-1235-son dalolatnomasi). Natijada chet tili o‘qituvchilarning blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonining samarali taraflarini bilish imkoniyatlari kengaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish, shulardan, 1ta qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 127 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Blended learning texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini metodik takomillashtirishning nazariy asoslari**" nomli birinchi bobida, zamonaviy ta'lim jarayonida onlayn va an'anaviy o'qitish metodlarining integratsiyasi bo'lgan blended learning texnologiyasining nazariy-psixologik asoslari yoritiladi.

Bobda, avvalo, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tushunchasining mohiyati, tarkibiy komponentlari, rivojlanish mexanizmlari va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, blended learning texnologiyasi asosida ushbu kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodik yondashuvlari va samarali amaliyotlari asoslab beriladi. Shuningdek, chet tilini o'qitishda qo'llanilayotgan yondashuvlarning nazariy rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir vositalar, konsepsiyalar, tamoyillar hamda metodikalarni takomillashtirish oid masalalar jahon miqyosida ko'plab yetuk olimlar o'z hissasini qo'shgan. Xususan, ingliz olimlari S.Krashen, D.Nunan, J.Harmer va H.Palmer, rus olimlari B.Gershunskiy, L.Vygotskiy I.Raxmanov, V.Setlin, S.Folomkina chet tilini bosqichma-bosqich va tizimli asosda o'qitish, metodik vositalarni takomillashtirish borasida muhim ishlar qilganlar. O'zbekistonda esa professorlar J.Jalolov, G.Maxkamova va T.Sattarov zamonaviy metodik tamoyillarni ishlab chiqib, til o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratganlar.

"*Kasbiy kompetensiya*", va "*kasbiy faoliyat*" kabi tushunchalarni tahlil qilar ekanmiz, avvalo, "kompetensiya" va "kompetentlik" terminlarining mazmunini aniqlab olish zarurdir. Kompetensiya termini lotin tilidan olingan bo'lib, o'zbek

tilida “mos kelish”, “to‘g‘ri kelish” yoki “munosib bo‘lish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Kompetensiya faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu, o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olish darajasini anglatadi. Kompetensiya, shuningdek, o‘qituvchining amaliy malakalari va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab, o‘quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, G. Garfinkel kompetentlikni shaxsning bilim, ko‘nikma va tajribalari, shuningdek, jamiyatda egallagan kasbiy mavqeiiga mos ravishda o‘z vazifalarini bajarishga va ularni hal qilishda samarali bo‘lishiga qodirlik deb ta‘riflaydi. B.Gershunskiy kompetentlikni “savodlilik”, “ta‘lim olganlik”, “madaniyat”, “mentalitet” kabi tushunchalar bilan o‘zaro aloqadorlikda olib qaraydi. Yuqoridagi tushunchalarni o‘zaro aloqadorligini tahlil qilgan holda kasbiy kompetensiyaga quyidagicha ta‘rif berdik.

Kasbiy kompetensiya – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarining integratsiyasi bo‘lib, o‘qitish jarayonini mustaqil tashkil etish, pedagogik muammolarni tahlil qilish hamda o‘quv faoliyatini samarali boshqarish qobiliyatini belgilovchi asosiy mezon deb bildik.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning blended learning (aralash ta‘lim) texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari Z.Abdullayeva, L.Babaxodjaeva, X.Mannanova, A.Pardayev, A.Asqarov, N.Muslimov, M.Xolmuxamedovlar tomonidan tadqiq etilgan. Bir qator Yevropa olimlari D.Garrison, J.Bonk, N.Vaughan, C.Procter, A.Piersy, A.Miller A.Deyv, J.Xeppen tomonidan keng o‘rganilgan.


Ular asosan ushbu yondashuv va uning metodlari, nazariyasi bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan bo‘lib, bu yondashuvning asosiy prinsiplarini ishlab chiqib, uni ta‘lim jarayoniga tatbiq qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berishgan. Ular Blended learning texnologiyasini bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqishgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra blended learning texnologiyasi an‘anaviy va raqamli ta‘lim usullarini uyg‘unlashtirgan holda, talabalarni zamonaviy ta‘lim muhitiga moslashtirishga xizmat qiladi. U orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda mustaqil fikrlash, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, interaktiv muloqotga kirishish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Ayniqsa, topshiriqlarning onlayn va an‘anaviy muhitda almashinib borishi o‘quv jarayonining sifatini oshiradi va o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorgarlikni yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, ushbu texnologiya asosida yaratilgan o‘quv muhitida talaba o‘z o‘rganish jarayonini boshqarishga o‘rganadi, o‘z bilimini baholaydi va refleksiya qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Blended learning metodi natijasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari nafaqat til o‘rgatish metodikasi, balki ta‘limda raqamli vositalardan foydalanish malakasiga ham ega bo‘ladilar.

Axborot vositalari yordamida darslarni rejalashtirish va o‘tkazish jarayoni o‘qituvchining nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini sintezlashga,

shuningdek, o'quvchilarning interaktiv faoliyatini rag'batlantirishga imkon yaratadi. Ushbu yondashuvlar o'zaro hamkorlik, muloqot va ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali professional malakani oshirishning muhim omili hisoblanadi. Jumladan, M.Karimova va D.Soyipova, blended learning (aralash ta'lim) texnologiyasining ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-gnostik va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni ustida chuqur tadqiqot olib borgan. *Kasbiy-gnostik kompetensiya* - tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ingliz tili o'qituvchisining o'z faniga oid nazariy bilimlarni chuqur tushunishi, o'qitish jarayonida bu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini anglatadi. Blended learning modeli orqali o'qituvchilar o'z-o'zini baholash, izlanish olib borish va o'zining pedagogik yondashuvini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. S.Siddiqova tadqiqotlarida dual ta'lim tizimi doirasida blended learning modelidan foydalanish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Uning ilmiy ishlarida blended learning modeli o'qituvchilarga o'zini-o'zi baholash, feedback mexanizmlarini joriy etish va interaktiv metodlar orqali nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini keng qamrovda ochib beradi.

Olim K.Kunning fikriga ko'ra, ta'limni professional formatda bo'lishi yuzmayuz va elektron ta'lim kamchiliklarini kamaytirish uchun mo'ljallangan ta'lim shakllarini o'ziga jamlaydi. Shu munosabat bilan, bilimlarni o'zlashtirishning ushbu turi ta'limning diversifikatsiyasi va AKTning tobora murakkablashishi sharoitida o'ziga xos ta'lim va ijtimoiy-madaniy murosadir, deb taxmin qilish mumkin. Mutaxassislar blended learningning afzalliklarini quyidagicha izohlaydilar:



1-rasm Blended learningning texnologiyasining afzalliklari

Shunday qilib, blended learning kontseptsiyasining mohiyati an'anaviy va elektron tarzda ta'lim olish formatlarini muvofiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash,

integratsiya va kombinatsiyalash mexanizmlarini yangilashdan iborat. Tadqiqotimiz davomida bir qancha olimlarning blended learning texnologiyasiga bergan ta'riflarini tahlil qilib Blended learning texnologiyasiga quyidagicha ta'rif berdik:

Blended learning - pedagogik maqsadlarga erishish uchun an'anaviy va raqamli ta'lim texnologiyalarini, sinxron va asinxron o'qitish usullarini, individual va kollektiv ta'lim shakllarini maqsadli ravishda integratsiyalash va optimal nisbatda uyg'unlashtirishga asoslangan innovatsion ta'lim tizimi bo'lib, unda o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va o'rganish uslubi hisobga olingan holda ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, ochiqligi va samaradorligini ta'minlanishdan iborat.

Tadqiqotimiz davomida bir qancha xorijiy ilmiy manbalarga ham murojaat qilib, ular orasida Gonkong, Janubiy Koreya, Malayziya, Avstraliya va Xitoy universitetlarining tajribalari alohida o'rganildi. Jumladan, Gonkong universitetida o'tkazilgan chuqur tadqiqotlarda blended learning metodi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Janubiy Koreyada amalga oshirilgan ilg'or ta'lim tadqiqotlari blended learning metodining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi orqali ingliz tili o'qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyasi va reflektiv fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanishini namoyon etadi. Tadqiqotlar asosan mobil ilovalar, Learning Management Systems (LMS), masalan Moodle, Edmodo, Blackboard kabi platformalarning ta'lim jarayonida faol qo'llanilishi asosida olib borilgan. Malayziya oliy ta'lim muassasalari, xususan Malayziya texnologiya universiteti, Universiti Sains Malaysia va University of Malaya singari nufuzli universitetlar, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda blended learning modelini chuqur integratsiyalash orqali sezilarli natijalarga erishganlar. Ularning tajribasi ta'lim jarayonini interaktiv, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi muhitga aylantirish bilan ajralib turadi. Avstraliyada olib borilgan tadqiqotlar blended learning modeli asosida tashkil etilgan "Teacher Readiness" dasturlarining ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Bu dasturlar asosan pre-service EFL o'qituvchilarining o'z-o'zini baholash, refleksiya yuritish va real muammolarni hal qilish salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Bob yakunida esa, blended learning texnologiyasi orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga oid ilg'or xorijiy va milliy tajribalar umumlashtiriladi, hamda bu asosda taklif etilayotgan texnologiyaning nazariy zaminlari asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, 1-bobda ko'rib chiqilgan nazariy asoslar va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ, reflektiv va innovatsion texnologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Mahalliy ta'lim tizimida xorijiy ilg'or amaliyotlarni kontekstual moslashtirish orqali o'qituvchi shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, umuman, ta'lim sifatini oshirishga erishish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi”** deb nomlangan. Ushbu bob ilmiy ishning asosiy natijalari, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarning blended learning texnologiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali usullar va metodlarni qo‘llash, ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, talaba va ingliz til o‘qituvchisining vazifalari bayon etib berilgan.

Ushbu bobda dastlab, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda blended learning texnologiyasidan samarali foydalanish yo‘llari, metodik yondashuvlar hamda ta’lim jarayonining ishtirokchilari talabaning yangi funksiyalari tahlil qilindi.

Blended learning texnologiyasi an’anaviy ta’lim bilan raqamli ta’lim elementlarining integratsiyasiga asoslangan bo‘lib, u o‘quv jarayonining moslashuvchanligi, shaxsga yo‘naltirilganligi va interaktivligini ta’minlaydi. Ushbu bobda mazkur yondashuvning an’anaviy metodlardan asosiy farqlari jadval shaklida taqqoslab berilgan.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda flipped classroom, onlayn platformalar, interaktiv testlar, video darslar, gamifikatsiya elementlari (Quizlet, Kahoot, Baamboozle) kabi vositalarning integratsiyalashuvi muhim o‘rin tutishi asoslab berildi. Shuningdek, tadqiqotimizda turli onlayn ta’lim vositalarning qiyosiy tahlilini qildik.

Ingliz tili o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy raqamli vositalar orasida hamkorlik platformalari, video muhokama tizimlari, raqamli doskalar, interaktiv video vositalari, baholash tizimlari va kontent yaratish dasturlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu platformalar til ko‘nikmalarining to‘rt asosiy komponenti - *tinglash, gapirish, o‘qish va yozish* - ni kompleks rivojlantirishga imkon beradi. Video asosidagi muhokama platformalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday formatlar talabalarning gapirish, gapirishda o‘zlariga ishonchini oshiradi.

Ushbu ilmiy ishda aynan yuqoridagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks modul dizayniga asoslangan texnologiya ishlab chiqildi (2-rasm). Mazkur metodik texnologiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, ularni yangi davr ta’lim muhitiga moslashtirish, zamonaviy o‘quv texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. Har bir bosqich aniq maqsadlarga ega bo‘lib, u o‘zida nazariy asos, amaliy mashg‘ulot, reflektiv faoliyat va raqamli yondashuvlarni mujassamlashtiradi.

Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilar darsni nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy vositalar bilan uyg‘unlashtirgan holda rejalashtirilgan, o‘quvchilarni faollashtiruvchi topshiriqlar asosida olib borilgan mashg‘ulotlar orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishadi. Bundan tashqari, o‘z pedagogik faoliyatini baholash, faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, shuningdek, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalar ishlab chiqish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Tadqiqotimiz blended learning texnologiyasining nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga

Boshlang'ich bosqich

Kasbiy kompetensiyalar tarkibini aniqlash (davlat standartlari asosida), talabalar ehtiyojlarini o'rganish (sorov, test), mavjud resurslarni tahlil qilish (texnik), talabalarga Blended learning texnologiyasi haqida ma'lumot berish, uning afzallik taraflarini tushuntirish, va ushbu texnologiyani samarali tatbiq qilishda qiziqishlarini uyg'otish.



Maqsad va vazifalarni belgilash, onlayn kurs materiallarini tayyorlash (videolar, prezentatsiyalar, testlar), offlayn mashg'ulotlar rejalarini ishlab chiqish, baholash vositalari va mezonlarini yaratish, metodik ko'rsatmalar va qo'llanmalar tayyorlash



Ana'naviy ta'lim bosqichi

Texnologik kompetensiya: Bo'lajak o'qituvchilar online ta'lim platformalari va mobil texnologiyalarning imkoniyatlari, nazariy asoslari va har bir vositaning pedagogik maqsadini o'rganishi

Kommunikativ kompetensiya: Juft va guruhda ishlash (yuzma yuz muloqo), og'zaki taqdimot, rol o'ynash (role playing), keyslar bilan ishlash va munozara qilish ko'nikmalarini takomillashtirish.

Pedagogik kompetensiya: mikro-o'qitish (10-15 daq), bir-birining darsini kuzatish, amaliy mashg'ulotlar,

Metodik kompetensiya: dars ishlanma tuzish, metodlarni amalda ko'rsatish, o'quv materiallari bilan ishlash, dars tahlili (metodik nuqtayi nazardan baholash), didaktik materiallar tayyorlash (kartochkalar, plakatlar) orqali takomillashtirish.

Refleksiv kompetensiya: refleksiya (reflective writing) yozuvi tayyorlash, bir birini baholash (peer-feedback), "Nima yaxshi? Nima yaxshilash kerak?" savollariga javoblar berish, metakognitiv savollar



Onlayn ta'lim bosqichi

Texnologik kompetensiya: Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining til o'rganish tajribasini oshirish, online platformalar orqali mashqlar ishlash, vazifalar bajarish va microteaching videolarni joylash orqali raqamli muhitda samarali o'qiy olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kommunikativ kompetensiya: onlayn platformada yozma muloqot, munozaralar, videolar joylashtirish, jonli suhbat, hamkorlikda ishlash va interaktiv mashqlar bajarish orqali takomillashtirish.

Pedagogik kompetensiya: Video-darslar (pedagogik nazariyalar, metodlar), vebinarlar, e-kutubxona (pedagogik adabiyotlar, maqolalar), boshqa o'qituvchilarning darslarini tahlil qilish orqali takomillashtirish,

Metodik kompetensiya: Video-darslar (o'qitish metodlari, texnikalari), elektron darsliklar (metodik qo'llanmalar, standartlar), yangi metodlar bilan tanishish, metodik muammolarni muhokama qilish, onlayn test va viktorinalar (metodik bilimni tekshirish)

Refleksiv kompetensiya: kundalik yozish (fikrlar, tajribalar), refleksiv so'rovnomalar, bir-birini baholash,



Loyiha ishining tuzilishi.

1. Loyiha mavzusini, loyiha turini, ishtirokchilar sonini tasdiqlash.
2. Blended learning texnologiyalarini tanishtirish.
3. Darslar davomida guruhlardan olingan ma'lumotlarning oraliq muhokamalarini o'tkazish.
4. Loyihalarni taqdim etish va himoya qilish.
5. Loyiha natijalarini jamoaviy muhokama qilish, eksper baholash (kafedra professor-mutaxassislarini jalb qilgan holda ekspertizadan o'tkazish).
6. Olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish.

Blended learning texnologiyadan kutilayotgan natijalar:

1. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda online texnologiyalardan mustaqil foydalanishni o'rganadi.
2. Kasbiy kompetensiyalar tuzilmasi takomillashtirildi (texnologik, kommunikativ, pedagogik, metodik va refleksiv).
3. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda onlayn ana'naviy ta'limni integratsiya qilishdagi bilimlari takomilashadi.
4. O'z o'zini baholash, o'zaro hamkorlikda ishlash, vaqtni to'g'ri taqsimlash, mustaqil ta'lim ko'nikmalari

2-rasm. Blended learning asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik texnologiyasi

Blended learning asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik texnologiyasini samarali joriy etishda aniq tizimlashtirilgan va kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga asoslangan yondashuv muhim ro‘l o‘ynaydi. Ta’lim jarayonining modullashtirilgan shakli, ayniqsa oliy ta’lim kontekstida, nafaqat dars jarayonni soddalashtiradi, balki kasbiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish imkonini ham yaratadi. Bunday yondashuv o‘zining tizimlili, bosqichma-bosqich rivojlanishi, izchilligi va amaliyotga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bosqichlarga asoslangan yondashuvda har bir bosqich aniq didaktik maqsadga ega bo‘ladi va ma’lum bir kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular ketma-ketlikda ta’lim oluvchining bilim darajasi, faoliyatga tayyorlik holati va kognitiv salohiyatiga mos ravishda quriladi. Metodik texnologiya strukturasi ketma-ketlik va bosqichlilik tamoyili asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, texnologiya yondashuvi faqatgina dars jarayonini rejalashtirish emas, balki o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlovchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarni integratsiyalovchi tizimli ta’lim texnologiyasini anglatadi. Unda nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, reflektiv tahlil, raqamli platformalar bilan ishlash, baholash va fikr almashuv kabi elementlar uzviy bog‘langan holda mavjud bo‘ladi.

Shuningdek, texnologiya yondashuvi zamonaviy ta’lim paradigmalari konstruktivistik, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda talaba faoliyatining markazda bo‘lishini ta’minlaydi. Bu yondashuv asosida o‘qituvchi ham talaba ham faol ishtirokchi bo‘lgan ko‘p tomonlama interaktiv muhitni rivojlantiradi.

